DUNYONING YETAKCHI DAVLATLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH TIZIMI VA SAMARALI AMALIYOTLAR

Mustafayeva Dinora Fayzulla qizi
Toshkent Davlat Yuridik Universitet huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyining 104-guruh o'quvchisi.
E-mail: dinora8162109@gmail.com
Husanova Mushriybegim Mahsud qizi
Toshkent Davlat Yuridik Universitet huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyining 104-guruh o'quvchisi.
E-mail: mushtariyhusanova2009@gmail.com
Ilmiy rahbar: Sotvoldiyev Xasanboy Ilhomjon o'g'li
Toshkent Davlat Yuridik Universitet huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyining Tarix fani óqituvchisi.
E-mail: hasanboysotvoldiyev167@gmail.com

Qabul qilindi: 04.12.2025
Ko'rib chiqildi: 05.12.2025
Tasdiqlandi: 06.12.2025

kalit so'zlar:
korrupsiyaga qarshi kurash, jinoiy javobgarlik, profilaktika tizimi, davlat boshqaruvi, shaffoflik, manfaatlar to'qnashuvi, solishtirma-huquqiy tahlil, xalqaro tajriba rivojlangan davlatlar

Ключевые слова:
противодействие коррупции, уголовная ответственность, профилактика коррупции, государственное управление, прозрачность, конфликт интересов,

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasining nazariy asoslari, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri hamda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot doirasida rivojlangan xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan javobgarlik choralari, shuningdek, ushbu davlatlarda shakllangan profilaktika va nazorat tizimlarining samaradorligi tahlil qilindi. Xususan, Malayziya, Xitoy, Janubiy Koreya,kabi davlatlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik tizimi o'rganilib, ularning huquqiy tajribasi solishtirma-huquqiy metod asosida tahlil etildi. Tadqiqot natijalarida mazkur davlatlarning ilg'or tajribasi O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda korrupsiyaning oldini olishga oid taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические основы понятия коррупции, ее влияние на

сравнительно-правовой анализ, международный опыт, развитые государства

Keywords:
anti-corruption measures, criminal liability, corruption prevention, public administration, transparency, conflict of interest, comparative legal analysis, international experience, developed countries

социально-экономическое развитие, а также механизмы противодействия коррупции. В рамках исследования проанализированы меры ответственности за коррупционные преступления в развитых зарубежных странах, а также эффективность профилактических и контрольных систем, сформированных в этих государствах. В частности, изучено антикоррупционное законодательство Малайзии, Китая, Республики Корея, Германии, США, Испании и ряда других государств, а их правовой опыт рассмотрен с использованием сравнительно-правового метода. По результатам исследования предложены рекомендации по адаптации передового международного опыта к условиям Республики Узбекистан с целью повышения эффективности профилактики коррупции.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of the concept of corruption, its impact on socio-economic development, and the mechanisms for combating corruption. Within the scope of the study, the liability measures for corruption-related offenses in developed foreign countries, as well as the effectiveness of their preventive and oversight systems, are analyzed. Specifically, the anti-corruption legislation of Malaysia, China, South Korea, Germany, the United States, Spain, and several other countries is reviewed, and their legal practices are studied using a comparative legal method. Based on the research findings, recommendations are proposed for adapting

advanced international best practices to the conditions of the Republic of Uzbekistan in order to enhance the effectiveness of corruption prevention.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan ilk kunlardanoq korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qildi. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli qonun qabul qilindi. Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tartibga solinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asosi yaratildi. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foidalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir [1]. Qonunning samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni bilan "2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi" hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlanib, uning asosiy vazifalari belgilab berildi [2]. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6013-sonli Farmoni qabul qilindi [3] va ushbu Farmonda ham korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari belgilab berildi.

Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 129-moddasi pora olishdan tashqari, pora so'rash va pora olishga va'da berish uchun ham javobgarlikni belgilaydi. E'tiborga molik jihati shundaki, mazkur davlat jinoyat qonunchiligi nafaqat pora berish yoki pora berishni va'da qilishni, balki shaxsning pora berish haqida o'z xohishini namoyon qilganligi holatini ham jazoga sazovor qilmish sifatida baholaydi [4]. Janubiy Koreyada korrupsiyaga qarshi jinoyatlar uchun

jazo tayinlashning bu usuli samarali hisoblanib, bunda nafaqat jinoyatni sodir qilgan shaxs, balki pora olish yoki berish haqida o'z xoxishini aytgan shaxs ham jinoyat sub'ekti bo'ladi va javobgarlikka tortiladi.

Shuningdek, Malayziyaning 1997-yildagi korrupsiyaga qarshi Qonunining 32- moddasida belgilanishicha, prokuror har qanday davlat xizmatchisi o'zining amaldagi va ilgarigi egallab turgan lavozimiga ko'ra ega bo'lishi mumkin bo'lgan darajadan ortiqcha bo'lgan har qanday mulkka egalik qilayotganligi yoki shunday mulkni boshqarayotganligi haqida asosli gumonga ega bo'lsa, o'z yozma ko'rsatmasi orqali ushbu mulkning manbasini ko'rsatishni talab qilishi mumkin va davlat xizmatchisi bunday manbani qoniqarli ravishda isbotlab bera olmagan taqdirda jinoyat sodir etishda aybdor deb topiladi. Malayziya qonunchiligiga davlat xizmatchilarining molmulkini deklaratsiya qilish tizimining yaratilganligi korrupsiyaning oldini olishdagi eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir davlatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy taraqqiyoti va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega yo‘nalishdir. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida izchil normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirilgani, davlat xizmatida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarining kuchayib borayotgani iqtisodiy va ijtimoiy hayotda muhim o‘zgarishlar bo‘layotganidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturlari va tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan farmonlar korrupsiyaning huquqiy asosda oldini olish, profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish hamda mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilishda muhim o‘rin tutdi.

Xorijiy tajribalar tahlili, xususan Janubiy Koreya va Malayziya kabi davlatlarning tajribasi, korrupsiyaga qarshi kurashishda qat'iy huquqiy mexanizmlar, majburiy mol-mulk deklaratsiyasi, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, pora berish niyatining o‘zini jinoyat sifatida baholash kabi yondashuvlar ayniqsa samarali ekanini ko‘rsatadi. Ushbu mamlakatlar tajribasi korrupsiyaning ildizi chuqur bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohalarda keskin va tizimli kurash olib borishning muhimligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston uchun ushbu ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda qo‘llash korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, jamiyatda huquqiy ong va mas'uliyatni

yuksaltirish, shuningdek, aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki islohotlar va xorijiy amaliyotning uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanishi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini ta’minlash, milliy manfaatlarni himoya qilish hamda adolatli va shaffof davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonuni. // https://lex.uz/docs/-3088008 / (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption);

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni. // https://lex.uz/docs/-4355387 / Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 29.05.2019y., 5729-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures for further improvement of the Anti-Corruption System in the Republic of Uzbekistan”);

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha choratadbirlar to’g’risida”gi Farmoni. // https://lex.uz/ru/docs/-4875784 Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 30.06.2020y., 6013-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On additional measures to improve the Anti-Corruption System in the Republic of Uzbekistan”);

4. Republic of Korea: Criminal Code (Wholly amended as of Jan. 1, 1998). p.21. URL: https://www.refworld.org/docid/3f49e3ed4.html